

IS GAZI BILAN BOG'LIQ KO'NGILSIZ HOLATLAR VA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Bozorov Subxon Esanovich

Buxoro Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv markazi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada is gazidan zaharlanish, sabablar, belgilar — alomatlari, favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam, davolash va oldini olish usullari xususidagi fikrlar ifodalangan

Kalit so'zlar: is gazi, tutun, kislorodli yostiq, yengil daraja, o'rta daraja, og'ir daraja, chala yonish.

KIRISH

Is gazi (uglerod oksidi) rangsiz, hidsiz zaharli birikma bo'lib, uglerodi mavjud bo'lgan har qanday yoqilg'i: tabiiy gaz, benzin, dizel, mazut, ko'mir, o'tin cho'g'larining chala yonishi oqibatida hosil bo'ladi. Tutun tarkibida 3 foiz, ishlangan gazda 13 foiz, portlovchi gazlar tarkibida esa 50–60 foizgacha is gazi bo'ladi. Inson hayoti turli xavf-xatarlarga, favqulodda vaziyatlarga to'la. Zero, umrimiz davomida doimo sergak, ehtiyyotkor va ogoh bo'lish nafaqat, o'zimiz va yaqinlarimizning salomatligini avaylashga, balki, beqiyos qimmatga ega bo'lgan hayot atalmish bebaho ne'matning qadriga yetish, uning bardavomligi va farovonligini ta'minlashga zamin yaratadi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday hususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishga barchamiz birdek mas'ulmiz. Shunday ekan, bu boradagi o'z bilim-ko'nikmalarimizni o'zgalar taqdiriga befarq bo'limgan jamiyatimiz a'zolariga ularashishimiz, yaqinlarimizning hayoti va sog'ligini qadrlashimiz, qolaversa, ming-minglab asrlarning tuman chig'iriqlaridan o'tgan insoniylik, xalqparvarlik singari oliy

fazilatlarimizga sodiq qolishimiz bizni yakdil, xamjihat el ekanimizni yana bir karra isbot etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Nimalar is gazidan zaharlanishga sabab bo‘ladi?

Gaz va muqobil yoqilg‘i (ko‘mir, o‘tin va boshqa) turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik;

nostandard (qo‘lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo‘lmagan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanish;

dudburonlarni noto‘g‘ri o‘rnatish;

gaz yoki boshqa muqobil yoqilg‘iga moslashtirilgan isitish pechlari hamda gaz balloonlarini uqlash xonalariga olib kirish;

havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov (ko‘mir va o‘tin cho‘g‘lari)dan foydalanish;

havoni almashtiruvchi shamollatish tuynuklarni berkitib qo‘yish;

yeterli havo aylanmaydigan sharoitda gazga moslashtirilgan qurilmalarning havoni tortish mexanizmi ishdan chiqishi yoki ventilyatsiya kanallariga havo yetarlicha kirib turishi;

dvigatelni cheklangan joyda, masalan, garajdagi mashinada ishlatish;

gaz moslamasida to‘g‘ri o‘rnatilgan havo aylantirish tizimining mavjud emasligi;

gaz plitasidan binoni isitish va uning ustida kiyimlarni quritishda foydalanish;

gaz plitasini yoqilgan holatda nazoratsiz tashlab qoldirish;

gaz balloonlarini issiqlik manbaiga yaqin joyda qoldirish;

bolalarni gaz uskunalaridan foydalaniluvchi joylarda nazoratsiz qoldirish;

quvurlardan tabiiy gaz sizib chiqishi;

pechlar qopqog‘ini yopmaslik holatlarida is gazidan zaharlanish mumkin.

Yonish maydonida yeterli kislorod bo‘lmasa, zaharlanish istalgan muhitda, hatto gaz plita duxovkasi ishlab turganda ham sodir bo‘lishi mumkin.

Is gazi organizmga qanday ta'sir qiladi?

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etib, avvalo, qonga kiradi va gemoglobin hujayralarini zararlaydi. Shundan so'ng gemoglobin kislorod tashish qobiliyatini yo'qotadi. Odam bu gazdan qancha ko'p nafas olsa, uning qonida gemoglobin shunchalik kamayadi va tanada kislorod yetishmovchiligi —gipoksiya paydo bo'ladi. Is gazidan zaharlanishdan so'ng gemoglobin hujayralarini tiklash uchun ko'p vaqt talab etiladi.

Is gazidan zaharlanish alomatlari

Uglerod oksididan zaharlanish qisqa muddatda yoki sekinlik bilan yuzaga chiqishi mumkin. Bu o'sha muhitda havo tarkibidagi gaz konsentratsiyasiga bog'liq. Agar uning miqdori kam bo'lsa, insonda mushaklar bo'shashishi, bosh aylanishi va og'riq, ko'krak qafasidagi og'riqlar, quloqlarda shovqin, eshitish qobiliyatining yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qushish, uyquchanlik kuzatiladi. Yuqori konsentratsiyada zaharlanish tezda yuzaga chiqadi va hushdan ketish, tutqanoqlar, nafas to'xtashi bilan namoyon bo'ladi. Eng yomoni, nafas markazining falajlanishi oqibatida o'lim holati yuz berishi mumkin. Ba'zida zaharlanishdan 2–3 hafta o'tib ham bemorlarning vafot etish holatlari qayd etilgan.

Gaz hidini sezganda nima qilish kerak?

Gaz hidini sezgan zahoti gaz avariya dispatcherlik xizmatiga xabar berish, barcha gaz kranlarini yopish, ochiq olovdan foydalanmaslik, darhol eshik va derazalarni ochib, xonani shamollatish, elektr jihozlarini yoqmaslik va o'chirmaslik kerak.

Birinchi yordam

Is gazidan zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish zaharlangan odamning hayotini saqlab qolishda nihoyatda muhim. Avvalo, gaz tarqalgan joydan jabrlanuvchini tezlik bilan toza havoga olib chiqish kerak. Jabrlanuvchi hushidan ketgan bo'lsa, nashatir spirtini hidlatish, sun'iy nafas berish, tanani ishqalash, issiq choy va kofe ichirish va, albatta, tez tibbiy yordamni chaqirish kerak.

Gaz bilan bog'liq yong'in va zaharlanishlar sodir bo'lganda qo'ng'iroq qilish mumkin bo'lgan raqamlar:

- 101 — yong'in xavfsizligi xizmati;
- 104 — gaz avariya dispetcherlik xizmati;
- 103 — tez tibbiy yordam xizmati;
- 1050 — qutqaruv xizmati.

Zaharlanish o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin. Uning kechishi havodagi is gazi konsentratsiyasi va uning ta'siri vaqtiga bog'liq.

Gaz konsentratsiyasi me'yoriy darajadan sezilarli oshib ketganida qisqa muddat ichida o'tkir zaharlanish sodir bo'ladi. Darajasi biroz yuqori bo'lgan havodan uzoq vaqt nafas olishda surunkali zaharlanish tashxislanadi. Klinik tasvirning og'irligiga qarab, zaharlanishning 3 darajasi farqlanadi:

Yengil daraja. Patologik gemoglobin miqdori 30% dan oshmaydi.

O'rta daraja. Qonda 30-40% karboksigemoglobin bo'lganida rivojlanadi.

Og'ir daraja. Karboksigemoglobin ulushi 40-50% ni tashkil etadi.

Nafas olinayotgan havo tarkibida 0.08% CO bo'lsa, odam bosh og'rig'i va nafas qisilishini his qiladi. CO kontsentratsiyasining 0,32% gacha o'sishida falajlik va hushni yo'qotish kuzatiladi (30 daqiqadan so'ng o'lim sodir bo'ladi). Konsentratsiya 1,2% dan yuqori bo'lsa, ikki yoki uch nafasdan so'ng hush yo'qoladi, odam 3 daqiqadan kamroq vaqt ichida vafot etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shikastlanish o'chog'ida favqulodda yordam ko'rsatish algoritmi:

Jabrlanuvchiga protivogaz (gopkalit patron bilan birga) taqiladi va u ta'sir maydonidan darhol evakuatsiya qilinadi.

Shikastlanish o'chog'idan tashqarida favqulodda yordam ko'rsatish algoritmi:

Jabrlanuvchidan protivogaz yechib olinadi va qisadigan kiyimlaridan ozod qilinadi. Jabrlanuvchiga kislород beriladi va isitiladi. Davolashning zamonaviy usullari barokamerada kislородли terapiyani o'z ichiga oladi. Ultrabinafsha nurlari

karboksigemoglobinning parchalanishini tezlashtirishi sababli, jabrlanuvchini kvarsli lampa bilan nurlantirish tavsiya etiladi. Ko'rsatmalarga ko'ra, manual nafas apparatlari yordamida sun'iy nafas berish amalga oshiriladi. Yurak yetishmovchiligi holatida teri ostiga 1 ml 10% kofein eritmasi kiritish, shuningdek 1 ml kordiamin preparati buyuriladi. Jabrlanuvchi darhol eng yaqin tibbiy muassasaga evakuatsiya qilinadi. Uglerod monooksidi bilan zaharlanish ko'pincha nafas yo'llarida va o'pkada yallig'lanish jarayonlari (bronxit, pnevmoniya) rivojlanishi bilan asoratlanadi, shuning uchun profilaktik maqsadlarda antibiotiklar qo'llaniladi.

Davolash choraları

Zaharlanishdan so'ng dastlabki uch soatda kislorod miqdori yuqori bo'lgan kislorodli yostiq berish juda muhimdir. Gaz manbaini tezda bartaraf etib, bosimi 1,5-2 atmosfera bosimigacha oshirilgan sof kislorod bilan nafas olish tavsiya etiladi. Yanada afzalrog'i karbogen (karbonat angidrid — CO₂ va kislorod aralashmasi) bilan nafas olish. Davolash statsionarda amalga oshiriladi. Bemorga vena ichiga infuziyalar kiritish, kardiotrop, antikonvulsiv preparatlar, kortikosteroidlar, diuretiklar, vitaminlar buyuriladi. Gipertermik sindromda kranioserebral gipotermiya amalga oshiriladi. Jahon tibbiyotida is gazidan zaharlanishida foydalanish uchun ishonchli antidotlar ma'lum emas. Biroq, rus olimlari tomonidan kashf etilgan «Atsizol» hozirda antidot sifatida o'rinn tutadi. U mushak ichiga eritma sifatida kiritiladi. Bundan tashqari, profilaktika vositasi sifatida ham taqdim etiladi. Profilaktik maqsadlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish kerak. Uyda zaharlanishga yo'l qo'ymaslik uchun nosoz gaz va isitish moslamalaridan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Avtomobil dvigateli ishlab turganda, garajda uzoq muddat bo'lmaslik kerak. Ishlab chiqarish xonalarida yaxshi ventilyatsiya ta'minlanishi kerak. Bundan tashqari, maxsus detektorlar mavjud bo'lib, ular havoda is gazining miqdori me'yordan oshganda kishiga signal beradi.

Gaz bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish choraları:

- gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin neft mahsulotlari va boshqalar) turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya eting;
- nostandard (qo'l bola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanmang;
- isitish pechlari dudburonlarining toza va soz holatda bo'lishini ta'minlang;
- gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari hamda suyultirilgan uglevodorod gaz balonlarini (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirmang;
- oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang;
- xonalarni isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanmang;
- havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarninn ochiq va ishchi holatda bo'lishini ta'minlang.

Xonadonlarga gazni aniqlovchi qurilma o'rnatish tavsiya qilinadi. Bu kutilmaganda is gazi va tabiiy gaz sizib chiqish holatlarini darhol aniqlash hamda bartaraf etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 maydagi "Ichki ishlar organlarining yong'in xavfsizligi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-2992-sonli qarori.
2. Шацкая К. В. Аварийность бытового таза. Причины возникновений аварий, правила безопасности использования газа в быту // European research, № 3 (4) /2015.
3. Gafurov Nemat Nazirovich. Aholi orasida tabiiy gaz sizib chiqishi va is gazi hosil bo'lishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishning zamonaviy usullari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7.APRIL.2022.
4. https://fvv.uz/uz_lat/item/92.
5. <https://mudofaa.uz/34609/>.